

IJTIMOYIY TARMOQLARDA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNING HUQUQIY MUHOFAZASI

Abduraxmonova Ruxsora Sobir qizi

Angren Universiteti

Xalqaro Hamkorlik bo'yicha Prorektor

***Annotatsiya.** Dunyo bo'ylab har daqiqada millionlab insonlar shunga o'xshash tizimlarga shaxsiy ma'lumotlarini, jumladan, ism-familiyasi, tug'ilgan sanasi, suratlariyu kundalik hayotiga oid turli lavhalarni joylamoqda. Biroq har doim ham ushbu ma'lumotlarning xavfsizligi ta'minlanmaydi. Hatto ba'zan huquqiy jihatdan ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash kimning majburiyati ekanini aniqlab olish ham mushkul vazifa. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur maqola mavzusi yuzasidan tegishli ilmiy va rasmiy adabiyotlardagi fikrlar umumlashtirilib, mavjud muammo yuzasidan taklif hamda tavsiyalar keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** Internet, ijtimoiy tarmoq, , shaxsiy ma'lumotlar, qonunchilik.*

***Abstract.** Every minute, millions of people around the world upload their personal information to such systems, including their name, date of birth, photos, and various snapshots of their daily life. However, the security of this information is not always ensured. Even sometimes it is a difficult task to determine whose responsibility it is to ensure the security of information from a legal point of view. In this article, the issues of ensuring the security of personal information in social networks are analyzed in detail. Also, the opinions of the relevant scientific and official literature on the subject of this article are summarized, and suggestions and recommendations are made on the existing problem.*

***Keywords:** Internet, social network, personal data, legislation.*

KIRISH

Butun sayyoramizni o'rab olgan interaktiv dunyo Internetning barcha foydalanuvchilarini birlashtiradi. Mavjud veb-industriya jadal rivojlanib, inson hayotining barcha sohalariga kirib bormoqda. Internetning muhim vazifalaridan biri iste'molchilar o'rtasida brend, tovar va xizmatlarni qidirish, shuningdek ommaviy axborot vositalarini ommalashtirish va rivojlantirish hisoblanadi[1]. Shuningdek, internet hozirda jamoatchilik orasida ommalashib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlarning vujudga kelishi hamda jamiyatdagi o'zgarishlarga o'zining sezilarli ta'sirini

o‘tkazishiga zamin yaratdi[2]. Ilgari faqat muloqot qilish vazifasini bajargan ijtimoiy tarmoqlar hozirda barcha sohalar uchun faoliyat maydoni bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular orqali tengsiz imkoniyatlarga ega bo‘lish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar uchun jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga o‘zlarining fikr va munosabatlarini bildirish uchun tengsiz bir vositaga aylangan. Shuningdek, mazkur tarmoq insonlarga bir qancha arzon va sifatli aloqa xizmatini taqdim etishi bilan birga bir qator shaxs ma’lumotlariga dahl qilishdek jinoyatlarga keng yo‘l ochib berdi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma’lumotlardan noqonuniy ravishda foydalanish hamda uning yuridik fanlari nomzodi tadqiqotchi olimlari tomonidan o‘rganilishiga doir tahlil va mushohadalar ilgari suriladi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI VA METODLAR

Ushbu mavzu yuzasidan xalqaro hamda milliy tadqiqot maydonida bir qancha ilmiy risola va adabiyotlar nashr etilgan bo‘lib xususan xorijlik olimlardan A. Suxova, Gatiyatullin T.[1], Filippov P.[2], V. Artyuxin[3], N.Bogomolova[4], V. Terin [5], E.Bern[6] va boshqa olimlar ijtimoiy tarmoqlarda shaxsning axborot xavfsizligining huquqiy jihatlari haqida turli tadqiqiy fikrlarni ilgari suradi. Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan olimlar ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma’lumotlarga tahdid usullari va davlatlararo uning huquqiy jihatlari tahlil qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy tarmoqlar madaniy almashinuv uchun virtual maydonni taqdim etadi, bu yerda shaxslar madaniyatlararo suhbatlarda qatnashishi, an’analarni baham ko‘rishi va madaniy tadbirlarni birgalikda nishonlashi mumkin. Ushbu almashuv madaniy xilma-xillikni o‘zaro tushunish, qadrlash va hurmat qilishni rivojlantiradi. Ijtimoiy tarmoqlar o‘z-o‘zini ifoda etish va o‘xshash odamlar bilan aloqa qilish uchun platforma taklif qilish orqali odamlarning madaniy o‘ziga xosligiga ta’sir qilishi mumkin[5]. Foydalanuvchilar o‘zlarining madaniy o‘ziga xosliklari, merosi va qadriyatlarini ochiqchasiga ta’kidlashlari va nishonlashlari mumkin, bu madaniy g‘urur va imkoniyatlarni oshirishga hissa qo‘shadi. Ijtimoiy tarmoqlar madaniy harakatlar va ijtimoiy faollikni kuchaytirishi mumkin. Turli madaniyatlarga mansub odamlar madaniy muammolarni hal qilish, ijtimoiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish, madaniy meros va saqlash haqida xabardorlikni oshirish uchun onlayn tarzda birlashishi va safarbar etilishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar ko‘p tilli muloqotni ta’minlaydi, til to‘siqlarini yo‘q qiladi va madaniyatlararo muloqotni rag‘batlantiradi. Shaxslar turli tillardagi kontent bilan shug‘ullanishlari, til almashinuvini va o‘rganish imkoniyatlarini rivojlantiradi.

Keyingi paytlarda internet bilan bog'liq buzg'unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko'payib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqda axborot almashinuvi prinsipi ma'lum bir onlayn ijtimoiy platforma doirasida foydalanuvchilar o'rtasida ma'lumot almashish, tarqatish va qabul qilish bo'yicha tizimli tadqiqot va tahlilni o'z ichiga oladi[3]. Ushbu tamoyilni tushunish uchun bir nechta asosiy jihatlarni hisobga olish kerak: Foydalanuvchining xatti-harakati: foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish ijtimoiy tarmoqda ma'lumotlar almashinuvini tushunish uchun juda muhimdir. Bunga foydalanuvchilarning postlar bilan qanday munosabatda bo'lishlari, kontent bilan shug'ullanishlari (yoqtirish, fikr bildirish, baham ko'rish) va boshqa foydalanuvchilar bilan qanday aloqa o'rnatishni o'rganish kiradi.

Huquqiy jihatdan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ijtimoiy tarmoqlar, ularning egalari va foydalanuvchilarining huquqiy maqomi belgilab qo'yilmagan. Kibermakonni tartibga solish masalalari faqat O'zbekiston Respublikasining **"Axborotlashtirish to'g'risida"**, **"Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"**, **"Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"**gi qonunlaridagina ko'rib chiqilgan. Ammo ushbu qonun hujjatlarida aynan ijtimoiy tarmoq tushunchalari va shu tizimlarda ma'lumotlar xavfsizligi masalalari yoritib berilmagan. Ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan ko'p hollarda veb-saytlar yoki axborot resurslari haqidagi qoidalar qo'llanadi. **"Axborotlashtirish to'g'risida"**gi qonunning 14-moddasida yuridik va jismoniy shaxslar o'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot resurslaridan erkin foydalanish, mazkur ma'lumotlarning to'liqligi hamda to'g'riligini ta'minlash maqsadida ularga aniqlik kiritish huquqiga egaligi va o'zi to'g'risidagi axborot resurslaridan yuridik va jismoniy shaxslarning erkin foydalanishi qonun bilan cheklanishi mumkinligi belgilangan. **"Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"**gi qonunning 4-moddasiga ko'ra, axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitusiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari, mamlakatning ma'naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta'minlash maqsadida cheklanishi mumkinligi qayd etilgan. Shuningdek, jismoniy shaxsning roziligisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, shaxsiy hayotiga taalluqli sir, yozishmalar, telefondagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi bayon qilingan. **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining** 141-2-moddasiga binoan shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish kabi harakatlarni ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etish jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Jazo sifatida bazaviy hisoblash miqdorining yuz barobaridan bir yuz ellik barobarigacha

miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari qo‘llaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma’lumotlarni yuridik jihatdan himoya qilishdan oldin ommaning huquqiy savodxonligi, internetdan foydalanish savodxonligini ta’minlash orqali kutilgan natijaga erishish mumkin. Albatta, huquqiy savodxonlikni ta’lim tizmidan oshirish imkoniyatlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bugungi kunda o‘zbek media segmentida shaxsiy ma’lumotlardan qo‘pol ravishda foydalanib turli-xil huquqbuzarliklar sodir etilmoqda. Dunyoda rivojlangan davlatlaridan Buyuk Britaniya, Rossiya va Germaniya davlatlari singari “Internetdan foydalanishda etika qoidalari” to‘plamini ishlab chiqish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Сухова А., Гатиятуллин Т. К вопросу защиты персональных данных в социальных сетях. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-zaschity-personalnyh-dannyh-v-sotsialnyh-setyah>
2. Филиппов П.Б. Использование и реализация защиты персональных данных в социальных сетях Интернета. <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-i-realizatsiya-zaschity-personalnyh-dannyh-v-sotsialnyh-setyah-interneta>
3. Артюхин В. В. Анализ проблем в многоуровневой структуре компьютерно-опосредованных коммуникаций // Прикладная информатика. 2009. № 4.
4. Богомолова Н. Н. Массовая коммуникация и общение. М., 1988.
5. Терин В. П. Массовая коммуникация. М., 1999.
6. Федеральный закон от 14 июля 2006 г. «Об информации, информационных технологиях и защите информации».
7. Берн Э. Игры, в которые играют люди. Люди, которые играют в игры. М.: Эксмо, 2007.
8. Ахборот erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida. <https://lex.uz/acts/-52268>
9. Ахборотlashtirish to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/-83472>